

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA YOSHLAR PSIXOLOGIYASI

Xakimova Sarvinoz Sharifjon qizi

Namangan davlat Pedagogika institute Psixologiya yo'nalishi magistri

Email address: hakimovasarvinoz140@gmail.com

ANNOTATION: *This article analyzes the impact of the rapid acceleration of digital transformation, the expansion of mass media and the Internet on the social consciousness of humanity against the backdrop of globalization. In particular, the impact of modern technologies on the lives, thinking, and social activity of young people is studied in detail. The article analyzes the positive and negative aspects of technological progress, its psychological, social, and moral consequences on a scientific basis, and draws conclusions.*

Keywords: *Digital transformation, globalization, youth psychology, social consciousness, will, information security, media literacy*

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada globallashuv jarayoni fonida raqamli transformatsiyaning keskin tezlashuvi, ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarining kengayishi insoniyatning ijtimoiy ongiga ko'rsatgan ta'siri tahlil etiladi. Xususan, zamonaviy texnologiyalarning yoshlar hayoti, tafakkuri va ijtimoiy faolligiga ko'rsatgan ta'siri atroflicha o'rganiladi. Maqolada texnologik taraqqiyotning ijobiy va salbiy jihatlari, uning psixologik, ijtimoiy hamda axloqiy oqibatlarini ilmiy asosda tahlil qilinib, xulosalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *Raqamli transformatsiya, globallashuv, yoshlar psixologiyasi, ijtimoiy ong, iroda, axborot xavfsizligi, media savodxonlik*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье анализируется влияние стремительного ускорения цифровой трансформации, расширения средств массовой информации и Интернета на общественное сознание человечества на фоне глобализации. В частности, подробно изучается влияние современных технологий на жизнь, мышление и социальную активность молодежи. В статье на научной основе анализируются позитивные и негативные аспекты технологического прогресса, его психологические, социальные и моральные последствия, а также делаются выводы.*

Ключевые слова: *цифровая трансформация, глобализация, психология молодежи, социальное сознание, воля, информационная безопасность, медиаграмотность*

Bugungi kunda internet texnologiyalari yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Axborot oqimi tezlashgan, ijtimoiy tarmoqlar keng tarqalgan, raqamli vositalar esa kundalik hayotning asosiy quroli bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga internetning kuchli ta'siri ostida yoshlar psixologiyasi ham o'zgarib bormoqda. Yoshlar psixologiyasining kun sayin o'zgarib borishi ularning o'ziga xos xususiyatlari va internet texnologiyalarining inson ongiga ta'siri ortib bormoqda. Ma'lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari

ham, har sohada ayniqsa, shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi: hozirgi zamon fantexnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, vositalari, taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi, umuman xalq xoljaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsiga ham o'ziga xos, yangicha talablar qo'yimoqda. Psixologlar, pedagoglar va ota-onalar yosh avlodga nafaqat bilim, balki ruhiy barqarorlik va hayotiy ko'nikmalarni ham berishga e'tibor qaratishi kerak.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar inson hayotining deyarli barcha jabhalariga chuqur kirib borgan bo'lib, ayniqsa yoshlar dunyoqarashi, qiziqishlari va psixologik holatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot oqimining cheksizligi, onlayn muloqotning ko'pligi va virtual muhitning kengayib borishi yoshlarning tafakkuri, axloqiy qarashlari hamda o'zini tutish madaniyatini shakllantirishda muhim omilga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik - bu bilimsizlikdir." Ushbu fikr zamirida shuni anglash mumkin: zamonaviy raqamli dunyoda yoshlar ilm va ma'rifatni egallamasa, raqamli texnologiyalar ularga imkon emas, aksincha xavf tug'dirishi mumkin. Shuning uchun ham bugungi kunda nafaqat texnologiyalardan foydalanish, balki ularni ongli, maqsadli va madaniyatli qo'llay olish, yuksak tarbiya bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.[1;24]

Yoshlik inson hayotidagi o'ziga xos va muhim bosqich bo'lib, u shaxs shakllanishining markaziy davridir. Bugungi yoshlar ijtimoiy tarmoqlar kengayob borayotgan bir davrda o'sib ulg'aymoqda. Ular har vaqt ham kattalar tomonidan nazorat qilinmoqda deyish mushkul. Yoshlarni internetdan ajratish ota-onalar uchun borgan sari mashaqqat talab qilmoqda. Chunki har qanday yoshdagi bola internetga qaram holatga kirib qolmoqda. Biroq har narsaning me'yori bo'lmog'i zarur. Yoshlar virtual olamning haqiqiy olam emasligini bilib borishlari shart. Ba'zan bolalar kattalar tomonidan nazoratsiz va ularning ruxsatisiz tarmoqqa tashrif buyurish imkoniga ega bo'lib qoladilar. Bolalar va o'smirlar Internet tarmog'ida sayr qilarkan, ularga umuman kirish mumkin bo'lmagan saytlarga duch kelishlari mumkin. Tabiiyki, bunday axborotlar qiziquvchan yoshlarni o'ziga ko'proq jalb etadi. Biror harakatni amalga oshirishda bolalarga qanchalik ruxsat etilmasa, ularda shunchalik yuqori darajada qiziqish uyg'onishi barchaga ma'lum. Yoshlar tarmoqdagi nosog'lom turmush tarzidan axborot beruvchi ayrim manbalarga duch kelsalar, yanada qiziqib, mazkur axborotlarga alohida e'tibor qaratishlari ehtimoldan xoli emas. Albatta, Internet tarmog'i manbalari zamonamiz o'smirlari bilim doirasini, dunyoqarashini kengaytirishi bilan ayrim jihatlariga ko'ra ularning tarbiyasiga nafaqat salbiy, balki xavfli ta'sir ko'rsatishi ham mumkinligini unutmashimiz zarur.

Bugungi raqamli davrda axborot texnologiyalari, internet va mobil qurilmalar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar, sun'iy intellektga asoslangan platformalar yoshlarning fikrlash tarzi, munosabatlari, ta'limga bo'lgan

yondashuvlari va ruhiy holatiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar yoshlar hayotiga chuqur kirib kelgani bois, ularning salbiy va ijobiy jihatlarini chuqur anglash va ulardan oqilona foydalanishga o'rgatish bugungi ta'lim va tarbiya tizimining muhim vazifasidir. Texnologiyalarni foydali tomonga yo'naltirish — yosh avlodning intellektual, axloqiy va ijodiy salohiyatini yuksaltirish yo'lida muhim qadamlardan biridir. Ko'pgina yoshlar uchun internetdan ko'ngilochar vosita sifatida foydalanadi, uning qimmatli bilimlar manbayi ekanligi hamda o'quv faoliyatida yordamchi qurolligi ikkinchi o'ringa tushib qoladi. Sarhadsiz internet dunyosiga kirgan shaxs vaqt, umr g'animat ekanini doimo yodda saqlamog'i lozim. Bu murakkab zamonda insonni har narsani yaxshi yomonini ajratib ijobiysi tomon harakatlantiradigan kuch bu irodadir.

Insonda iroda bor ekan u o'zini yomon illatlardan cheklay oladi. [Shuning uchun iroda va niyat ila mavjud bo'lmish barcha faoliyatni \(harakatni\) o'rganish zarurati maydonga keldi.](#)

Ezgu irodaning mohiyati amaliy aqlga mansub bo'lgan hur irodadir. Shu sababdan inson irodasini boshqa tirik mavjudotlardagi, masalan, hayvonlardagi "ezgu irodaga" o'xshatib bo'lmaydi.[3;67] Bu global tarmoq bepoyon hududlarga ega bo'lib, unda inson adashib soatlab, kunlarini samarasiz o'tkazib yuborishi mumkin. Bugungi shiddatli globallashuv davrida yoshlar ong-u shuurini internet orqali kirib kelayotgan zararli g'oya va ta'sirlardan samarali va ishonchli himoyalash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o'qituvchilar, ma'naviyat targ'ibotchilari, ota-onalardan yanada hushyor va ogoh bo'lishni, yosh avlodning g'oyaviy-mafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirishni talab qiladi. Shunga qaramasdan, ayrim o'smirlar kompyuter va internetdan ta'limiy maqsadlarda foydalanishadi. Ko'pgina yoshlar uchun internetdan ko'ngilochar vosita sifatida foydalanadi, uning qimmatli bilimlar manbayi ekanligi hamda o'quv faoliyatida yordamchi qurolligi ikkinchi o'ringa tushib qoladi. Sarhadsiz internet dunyosiga kirgan shaxs vaqt, umr g'animat ekanini doimo yodda saqlamog'i lozim.

Zero, bu global tarmoq bepoyon hududlarga ega bo'lib, unda inson adashib soatlab, kunlarini samarasiz o'tkazib yuborishi mumkin. Bugungi shiddatli globallashuv davrida yoshlar ong-u shuurini internet orqali kirib kelayotgan zararli g'oya va ta'sirlardan samarali va ishonchli himoyalash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o'qituvchilar, ma'naviyat targ'ibotchilari, ota-onalardan yanada hushyor va ogoh bo'lishni, yosh avlodning g'oyaviy-mafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirishni talab qiladi. Shunga qaramasdan, ayrim o'smirlar kompyuter va internetdan ta'limiy maqsadlarda foydalanishadi. Internet tarmog'lari yoshlarning dunyoqarashini, fikrini o'zgartirib yubordi. Bu olamga g'arq bo'lgan yoshlarning deyarli ko'pchiligida insoniylik, mehr-oqibat, tuyg'ulari, muomala ma'daniyati kamayib bormoqda. Umuman, internetga qaramlikning eng og'ir jihati real olamni, insoniylik burchi va vazifalariga mas'uliyatsizlik bilan qarashidir. Inson haqiqiy hayotda yashashi, halol mehnat qilishi, ilm o'rganishi elu yurtiga fidoyilik bilan xizmat qilishi, atrofdagilarga foyda keltirishi kerak.

Internetda ko'p vaqtini o'tkazadigan insonning ruhiyatida mavhumlik va o'z qobig'iga o'ralib olish holati kuzatiladi. Bugungi kunda buzg'unchi guruhlar yoshlar ongiga ta'sir qilishda asosan internetdan foydalanayotganlari bejiz emas. Internetning yana bir salbiy jihati-kishilardagi xudbinlik, manmanlik, zamonaviy tilda ifoda etganda, egosentrizm illatining kuchayishiga sabab bo'lishidir.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarda internet dunyosida o'z o'rnini to'g'ri belgilash va foydalanuvchilar bilan to'g'ri muomala qilish, virtual olamdagi axborotlarni to'g'ri tahlil qilish malakasini shakllantirish davr talabidir. Hozirgi davrda Internet tarmog'iga ulangan kompyuter, mobil telefonlari deyarli juda ko'plab xonadonlarda bor. Bundan tashqari, yoshlar internet kafelarda ham tarmoqdan foydalana oladilar. Bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal taraqqiy etishi va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga joriy etilishi sababli barcha uchun kompyuter savodxonligi dolzarb masalalardan biridir. Yoshlar ijtimoiy tarmoqlar kengayib borayotgan davrda o'sib ulg'aymoqda. Bu quvonarli hol to'g'ri. Ammo har narsaning me'yori bo'lmog'i zarur. Yoshlar virtual olamning haqiqiy hayotni to'liq aks ettira olmasligini anglab borishlari shart. Zero, internet va ijtimoiy tarmoqlar ko'pincha inson hayotining faqat yorqin, bezatilgan yoki sun'iy ko'rinishlarini ko'rsatib beradi. Bu esa shaxsning o'ziga, hayotiga va atrofdagi insonlarga nisbatan noto'g'ri taqqoslashlar qilishi, o'z qadrini past baholashi yoki aksincha, soxta maqtov va e'tiborga intilishiga olib keladi. Shuning uchun yoshlar haqiqiy baxt, muvaffaqiyat va o'zlikni anglash real hayotdagi mehnat, izlanish, muloqot va tajribada shakllanishini tushunib yetishlari kerak. Virtual olamdan to'g'ri foydalanish, undan bilim olish, izlanish va o'z ustida ishlash uchun vosita sifatida foydalanish - zamonaviy avlodning eng muhim ko'nikmalaridan biri hisoblanadi. Haqiqiy qadriyatlar esa doimo insonning o'ziga bo'lgan hurmati, bilimga chanqoqligi va jamiyatdagi ijobiy o'rnini topishida namoyon bo'ladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M - "Yangi O'zbekiston strategiyasi". "O'zbekiston" nashriyoti. Toshkent – 2021
2. Avloniy A. "Turkiy Guliston yohud ahloq". O'qituvchi nashriyoti, Toshkent-1992
3. Farobiy A.N.- Fozil odamlar shaxri. "O'zbekiston milliy ensiklopedi- yasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent -2004
4. Hakimova, S. S. Q. (2025). Inson temperamentining psixologik xususiyatlari va ularning ijtimoiy hayotdagi o'rnini. *Science and Education*, 6(11), 981-985.
5. Safarov T.S. va boshq. Informatika va axborot texnologiyalari. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent-2006.
6. Hakimova, S. S. Q. (2023). Talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish masalalari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(6), 785-790.